



"TIQXMMI"

MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI

**"TIQXMMI" MTU
HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH
TARMOQ MARKAZI**

YER TUZISHNI LOYIXALASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR

2026

TIAME.UZ

Modulning o'quv-uslubiy majmuasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi №485-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv dasturi va o'quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar: S.Avezbaev- iqtisod fanlari doktori, professor
S.R.Sharipov- katta o'qituvchi

Taqrizchilar: S.Toshpo'latov- texnika fanlari nomzodi, professor
Toshkent arxitektura va qurilish universiteti.
I.M.Musaev- texnika fanlari nomzodi, dotsent

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI.....	10
NAZARIY MASHG‘ULOTLAR.....	15
AMALIY MASHG‘ULOTLAR.....	33
GLOSSARIY.....	39
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	41

Kirish

Mazkur o‘quv uslubiy majmua O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi PF–4732-son “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”, 2019-yil 27-avgustdagi PF–5789-son “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktabrdagi PF–6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 25-yanvardagi PF–14-son “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentabrdagi PF–158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ–228-son “Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 17-fevraldagi PQ–4996-son “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi 797-son va 2024-yil 11-iyuldagi 415-son qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmuni hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 10-dekabrdagi “2026-yilda o‘tkaziladigan davlat oliy ta’lim muassasalari, akademik litsey rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslari rejasi va tinglovchilar kontingentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 500-sonli buyrug‘i ijrosini ta’minlash vazifalaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqildi. Dastur mazmuni bevosita malaka oshirishni o‘zida mujassamlashtirgan xolda pedagogning professional faoliyatidagi innovatsiyalar, pedagogning axborot va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish, maxsus fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, texnologik taraqqiyot va o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning kasbiy kompetentligi va kreativligi, global Internet tarmog‘i, multimedia tizimlari va masofadan o‘qitish usullarini o‘zlashtirish bo‘yicha yangi bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi: qayta tayyorlash va malaka oshirish kursit inglovchilarini yer tuzishni loyihalashda raqamlashtirish texnologiyalari asoslari haqidagi bilimlarini takomillashtirish, pedagog kadrlarni innovatsion yondoshuvlar asosida o'quv jarayonlarni ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg'or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o'zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat.

Modulning vazifalari:

- yer tuzishni loyihalashni avtomatlashtirish jarayonlarini tashkil etish va uning sifatini ta'minlashning innovatsion metodlarini tahlil qilish;
- yer tuzishni loyihalashni raqamlashtirishning zamonaviy texnologiyalarini uslubiy ta'minotini tahlil qilish;
- sifat jihatdan yuqori darajada ma'lumotlarni olish, tahlil qilish va optimallashtirish texnologiyalarini qo'llash hamda amalda tadbiq etish bo'yicha yo'nalish profiliga mos bilim, ko'nikmalarni hosil qilish;
- tinglovchilarda yer tuzishni loyihalashda raqamli texnologiyalarni amalda qo'llashning zamonaviy tendensiyalari bo'yicha ko'nikmasi va malakalarini shakllantirish;

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

“Kredit-modul tizimi va o'quv jarayonini tashkil etish” modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- yer tuzishni loyihalash asosida ta'lim jarayonlarini tashkil etish va uning sifatini ta'minlashning innovatsion metodlari;
- yer tuzishni loyihalashning avtomatlashtirilgan tizimini yaratishning asosiy tamoyillari;
- geografik axborot tizimlari, yer axborot tizimlari va ulardan yer tuzish ishlarini o'tkazishda foydalanish, zamonaviy dasturlar va jihozlar ta'minoti vositalari klassifikatsiyasi hamda yer tuzishni avtomatlashtirish tizimlarini yaratishning yangi metodlari haqidagi **bilimlarga ega bo'lishi**;
- yer tuzishni loyihalashning yangi avtomatlashtirilgan tizim o'zgarishlari ma'lumotlaridan foydalanish, boshlang'ich ma'lumotlarini kiritish;
- innovatsion yutuqlardan foydalangan holda yangilangan yer tuzish loyihalarini yaratish **ko'nikma va malakalarini egallashi**;

- yangilangan avtomatlashtirilgan tizimlardan yer tuzish va yer kadastri ishlarida foydalanishni amalga oshirish;
- innovatsion yechimlarni va yer tuzish hisob-kitoblarini avtomatlashtirilgan tizimda bajarish jarayonini tashkil etish;
- soha yutuqlaridan va yangi avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalangan holda yer tuzish loyihalarini ishlab chiqish **kompetensiyalarni egallashi lozim.**

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

“Yer tuzishni loyihalashda raqamli texnologiyalar” moduli ma’ruza va amaliy mashg’ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o’qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo’llanilishi, shuningdek, ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimot va elektron-didaktik texnologiyalarni; o’tkaziladigan amaliy mashg’ulotlarda texnik vositalardan, GAT texnologiyalari, Panorama dasturi, blis-so’rovlar, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, va boshqa interfaol ta’lim metodlarini qo’llash nazarda tutiladi.

Modulning o’quv rejadagi boshqa modullar bilan bog’liqligi va uzviyligi

“Yer tuzishni loyihalashda raqamli texnologiyalar” moduli bo’yicha mashg’ulotlar o’quv rejadagi umumblok hamda mutahassislik modullari bilan uzviy aloqadorlikda olib boriladi.

Modulning oliy ta’limdagi o’rni

Modulni o’zlashtirish orqali tinglovchilar ta’lim jarayonida yer tuzish loyihalarini ishlashda raqamli texnologiyalarni qo’llash orqali katta hajmdagi metrik (plan-xarita) va semantik (ob’ektni tavsiflovchi) ma’lumotlar bazasi va elektron haritalarni yaratish va amalda qo’llashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo’ladilar.

MODUL BO'YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

№	Modul mavzulari	Auditoriya uquv yuklamasi			
		Jami	jumladan		
			Nazariy	Amaliy mashg'ulot	Ko'chma mashg'uloti
1.	Raqamli iqtisodiyot sharoitida katta xajmdagi geoaxborotlarni olish, qayta ishlash va boshqarishning zamonaviy muammolari	4	2	2	
2.	Yer tuzish uchun qishloq xo'jaligi maqsadlariga mo'ljallangan yerlar va umuman mamlakat yer maydonlari to'g'risidagi raqamlashtirilgan yagona axborotlar tizimidan foydalanish yo'llari	4	2	2	
3	Yer tuzish loyixalarini raqamli ko'rinishga o'tkazish va shu asosda ular aniqligini tubdan oshirishning innovatsion yechimlari	4	2	2	
4	Raqamlashgan tarzda respublika, viloyat, tuman darajalarida yerdan foydalanishni prognozlash va rejalashtirish xujjatlarini ishlab chiqish usullarini takomillashtirish.	6	2	2	2
5	Yer tuzish uchun qishloq xo'jaligi maqsadlariga mo'ljallangan yerlar va umuman mamlakat yer maydonlari to'g'risidagi raqamlashtirilgan yagona axborotlar tizimidan foydalanish.	4			4
	Jami:	22	8	8	6

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-Mavzu: Raqamli iqtisodiyot sharoitida katta xajmdagi geoaxborotlarni olish, qayta ishlash va boshqarishning zamonaviy muammolari (2 soat)

- 1.1. Geoaxborot tizimlaridan foydalanishning zamonaviy imkoniyatlari.
- 1.2. Geoaxborotlarni olish va qayta ishlashning samarali qo'llash usullari.
- 1.3. Geoaxborotlarni boshqarishning zamonaviy muammolari va yechimlari.

2-Mavzu: Yer tuzish uchun qishloq xo'jaligi maqsadlariga mo'ljallangan yerlar va umuman mamlakat yer maydonlari to'g'risidagi raqamlashtirilgan yagona axborotlar tizimidan foydalanish yo'llari (2 soat)

- 2.1. Zamonaviy yer tuzish uchun qishloq xo'jaligi maqsadlariga mo'ljallangan yer maydonlari to'g'risidagi ma'lumotlarni raqamlashtirish.
- 2.2. Mamlakat yer maydonlari to'g'risidagi raqamlashtirilgan yagona axborotlar tizimidan foydalanishning innovatsion yo'llari.

3-Mavzu: Yer tuzish loyihalarini raqamli ko'rinishga o'tkazish va shu asosda ular aniqligini tubdan oshirishning innovatsion yechimlari (2soat)

- 3.1. Yer tuzish loyihalarini raqamli ko'rinishga o'tkazishning innovatsion usullarini qo'llash.
- 3.2. Yer tuzish loyihalarini aniqligini oshirishning innovatsion yechimlari masalalari.

4-Mavzu: Raqamlashgan tarzda respublika, viloyat, tuman darajalarida yerdan foydalanishni prognozlash va rejalashtirish xujjatlarini ishlab chiqish usullarini takomillashtirish (2 soat)

- 4.1. Raqamlashgan tarzda respublika darajasida yerdan foydalanishni prognozlash va rejalashtirish xujjatlarini ishlab chiqish uslubiyatlarini takomillashtirish.
- 4.2. Raqamlashgan tarzda viloyat va tuman darajalarida yerdan foydalanishni prognozlash va rejalashtirish xujjatlarini ishlab chiqish uslubiyatlarini takomillashtirish.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-Amaliy mashg'ulot. Raqamli iqtisodiyot sharoitida katta xajmdagi geoaxborotlarni olish, qayta ishlash va boshqarishning zamonaviy muammolari (2 soat).

Raqamli iqtisodiyot sharoitida katta xajmdagi geoaxborotlarni olish, qayta ishlash va boshqarishning zamonaviy muammolarini o'rganish va yechim izlash. Yer tuzishni loyihalash va yer kadastrining avtomatlashtirilgan tizimlarini

loyihalashga va uning elementlariga qo'yiladigan asosiy talablarni o'rganish.

2-Amaliy mashg'ulot. Yer tuzish uchun qishloq xo'jaligi maqsadlariga mo'ljallangan yerlar va umuman mamlakat yer maydonlari to'g'risidagi raqamlashtirilgan yagona axborotlar tizimidan foydalanish yo'llari (2 soat).

Yer tuzish uchun qishloq xo'jaligi maqsadlariga mo'ljallangan yerlarning raqamlashtirilgan ma'lumotlari va umuman mamlakat yer maydonlari to'g'risidagi raqamlashtirilgan yagona axborotlar tizimidan foydalanishni o'rganish.

3-Amaliy mashg'ulot. Yer tuzish loyixalarini raqamli ko'rinishga o'tkazish va shu asosda ular aniqligini tubdan oshirishning innovatsion yechimlari. (2 soat).

Yer tuzish loyihalarini raqamli ko'rinishga o'tkazishdagi yangiliklarni o'rganish va shu asosda ular aniqligini tubdan oshirib borish.

4-Amaliy mashg'ulot. Raqamlashgan tarzda respublika, viloyat, tuman darajalarida yerdan foydalanishni prognozlash va rejalashtirish xujjatlarini ishlab chiqish usullarini takomillashtirish (2 soat).

Raqamlashgan tarzda respublika darajasida yerdan foydalanishni prognozlash va rejalashtirish xujjatlarini ishlab chiqishni takomillashtirish usullarini o'rganish. Raqamlashgan tarzda viloyat va tuman darajalarida yerdan foydalanishni prognozlash va rejalashtirish xujjatlarini ishlab chiqishning takomillashtirilgan usullarini o'rganish.

KO'CHMA MASHG'ULOT (6 soat)

Mavzu:Raqamlashgan tarzda respublika, viloyat, tuman darajalarida yerdan foydalanishni prognozlash va rejalashtirish xujjatlarini ishlab chiqish usullarini takomillashtirish va Yer tuzish uchun qishloq xo'jaligi maqsadlariga mo'ljallangan yerlar va umuman mamlakat yer maydonlari to'g'risidagi raqamlashtirilgan yagona axborotlar tizimidan foydalanish.

(6 soat)

Ko'chma mashg'ulotlar uchun 6 soat ajratilgan bo'lib, mashg'ulotlarda quyidagi ishlar bajariladi:

Raqamlashgan sharoitda respublika, viloyat va tuman darajalarida yerdan foydalanishni prognozlash hamda rejalashtirish hujjatlarini ishlab chiqish usullarini takomillashtirish, shuningdek yer tuzish jarayonida qishloq xo'jaligi maqsadlariga mo'ljallangan yerlar va umuman mamlakat yer fondi to'g'risidagi raqamlashtirilgan yagona axborot tizimidan samarali foydalanish mavzusi asosida tashkil etiladigan sayyor dars jarayonida bir qator nazariy va amaliy ishlar amalga oshiriladi. Darsning dastlabki bosqichida tinglovchilar sayyor darsning maqsadi,

vazifalari va kutilayotgan natijalari bilan tanishtiriladi hamda yerdan foydalanishni boshqarishda raqamli texnologiyalar va axborot tizimlarining o'рни va ahamiyati haqida umumiy tushunchalar beriladi.

Keyingi bosqichda yer tuzish va yer kadastri sohasida qo'llanilayotgan raqamlashtirilgan yagona axborot tizimining tuzilmasi, funksional imkoniyatlari va undan foydalanish tartibi amaliy misollar orqali ko'rsatib beriladi. Tinglovchilar qishloq xo'jaligi maqsadlariga mo'ljallangan yerlar, yer fondining toifalari va ularning raqamli bazalari bilan tanishib, fazoviy va atributiv ma'lumotlar bilan ishlash ko'nikmalarini egallaydilar. Shuningdek, geografik axborot tizimlari asosida raqamli xaritalar bilan ishlash, hududiy ma'lumotlarni tahlil qilish usullari o'rganiladi.

Sayyor darsning asosiy qismida yerdan foydalanishni prognozlash bo'yicha amaliy ishlar bajariladi. Jumladan, tanlangan hudud bo'yicha yer resurslarining joriy holati raqamli ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi, yer fondidan foydalanish samaradorligi baholanadi hamda kelgusidagi rivojlanish yo'nalishlari prognoz qilinadi. Qishloq xo'jaligi yerlarining ekin tarkibi, meliorativ holati va foydalanish ko'rsatkichlari bo'yicha raqamli tahlillar olib borilib, olingan natijalar asosida xulosalar chiqariladi.

Shundan so'ng respublika, viloyat va tuman darajalarida yerdan foydalanishni rejalashtirish hujjatlarini ishlab chiqish jarayoni bilan tanishiladi. Raqamli texnologiyalar yordamida yer tuzish loyihalarini shakllantirish, elektron xaritalar, jadval va hisobotlar tayyorlash bo'yicha amaliy ko'nikmalar mustahkamlanadi. Yagona raqamlashtirilgan axborot tizimidan ma'lumotlarni izlash, qayta ishlash va qaror qabul qilish jarayonida foydalanish imkoniyatlari muhokama qilinadi.

Dars yakunida amalga oshirilgan ishlar bo'yicha umumiy xulosalar chiqarilib, tinglovchilarning savollariga javoblar beriladi hamda sayyor dars davomida egallangan bilim va amaliy ko'nikmalar baholanadi. Natijada tinglovchilarda raqamli texnologiyalar asosida yerdan foydalanishni prognozlash va rejalashtirish hujjatlarini ishlab chiqish hamda yer tuzish jarayonida yagona raqamlashtirilgan axborot tizimidan samarali foydalanish bo'yicha puxta bilim va malakalar shakllantiriladi.

O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rilayotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish

qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);

- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI.

“ASSESSMENT” METODI

Metodning maqsadi: mazkur metod ta'lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment” lardan ma'ruza mashg'ulotlarida tignlovchilarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

“SWOT-tahlil” metodi.

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength)	• кучли томонлари
W – (weakness)	• заиф, кучсиз томонлари
O – (opportunity)	• имкониятлари
T – (threat)	• тўсиқлар

Namuna: Yer munosabatlarini tartibga solish usullarining SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

S	Dispozitiv usulning afzallik tomoni	Yerga oid munosabatlarni tartibga solishda tomonlar tengligini tan oladi
W	Dispozitiv usulning kamchilik tomonlari	Yer to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarining buzilganligi uchun javobgarlikka tortish masalalarida qo'llab bo'lmaydi
O	Dispozitiv usulning imkoniyatlari	Yerga oid munosabatlarni tartibga solishda tomonlarga imkoniyat beriladi
T	To'siqlar (tashqi)	Noqonuniy aralashuv

“Keys-stadi” metodi

«Keys-stadi» - inglizcha so'z bo'lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o'rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o'rganishda foydalanish tartibida qo'llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima -natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	yakka tartibdagi audio-vizual ish; keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); axborotni umumlashtirish; axborot tahlili; muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	individual va guruhda ishlash; muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	individual va guruhda ishlash; muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish; har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; muqobil yechimlarni tanlash

4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	yakka va guruhda ishlash; muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish
---	---

Кейсни бажариш босқчилари ва топшириқлар:

- Кейсдаги муаммони келтириб чиқарган асосий сабабларни белгиланг (индивидуал ва кичик гуруҳда).
- Ирригация тизимлари ишга тушириш учун бажариладагин ишлар кетма-кетлигини белгиланг (жуфтликлардаги иш).

“INSERT” METODI

Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o'zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o'taydi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- o'qituvchi mashg'ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko'rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta'lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko'rinishida namoyish etiladi;
- ta'lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o'z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda tinglovchilar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	1-matn	2-matn	3-matn
“V” – tanish ma'lumot.			
“?” – mazkur ma'lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma'lumot men uchun yangilik.			
“– ” bu fikr yoki mazkur ma'lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta'lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlar o'qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to'liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg'ulot yakunlanadi.

“TUSHUNCHALAR TAHLILI” METODI

Metodning maqsadi: mazkur metod tinglovchilar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo‘llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalarini bilan tanishtiriladi;
- tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday ma‘no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma‘lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va tuliq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan tugri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

“BLIS-O‘YIN” METODI

Metodning maqsadi: Tinglovchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maksadida qo‘llash samarali natijalarni beradi.

Metodni amalga oshirish bosqichlari:

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya‘ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o‘rganish talab etiladi. Shundan so‘ng, ishtirokchilarga to‘g‘ri javoblar tarqatmadagi «yakka baho» kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiradi va guruh a‘zolarini o‘z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta’sir o‘tkazib, o‘z fikrlariga ishontirish, kelishgan holda bir to‘xtamga kelib, javoblarini «guruh bahosi» bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3. Barcha kichik guruhlar o‘z ishlarini tugatgach, to‘g‘ri harakatlar ketma-ketligi trener-o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittiriladi, va tinglovchilardan bu javoblarni «to‘g‘ri javob» bo‘limiga yozish so‘raladi.

4. «To‘g‘ri javob» bo‘limida berilgan raqamlardan «yakka baho» bo‘limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bulsa «0», mos kelsa «1» ball quyish so‘raladi.

Shundan so'ng «yakka xato» bo'limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo'shib chiqilib, umumiy yig'indi hisoblanadi.

5. Xuddi shu tartibda «to'g'ri javob» va «guruh bahosi» o'rtasidagi farq chiqariladi va ballar «guruh xatosi» bo'limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo'shiladi va umumiy yig'indi keltirib chiqariladi.

6. Trener-o'qituvchi yakka va guruh xatolarini to'plangan umumiy yig'indi bo'yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo'yicha o'zlashtirish darajalari aniqlanadi.

«Yer tuzishni loyihalash jarayonini» ketma-ketligini joylashtiring. O'zingizni tekshirib ko'ring!

NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1-Mavzu: Raqamli iqtisodiyot sharoitida katta xajmdagi geoaxborotlarni olish, qayta ishlash va boshqarishning zamonaviy muammolari (2 soat)

Reja:

- 1.1. Geoaxborot tizimlaridan foydalanishning zamonaviy imkoniyatlari.
- 1.2. Geoaxborotlarni olish va qayta ishlashning samarali qo‘llash usullari.
- 1.3. Geoaxborotlarni boshqarishning zamonaviy muammolari va yechimlari.

1.1.Geoaxborot tizimlaridan foydalanishning zamonaviy imkoniyatlari.

GIS -bu haqiqiy dunyo ob'ektlarini, shuningdek sayyoramizda sodir bo'layotgan voqealarni, hayotimiz va ishimizni xaritalash va tahlil qilish uchun zamonaviy kompyuter texnologiyasi. GIS - bu elektron kartada kerakli ma'lumotlarni aks ettirishga imkon beruvchi kompyuter tizimi. Ma'lumotlar (fazoviy ma'lumotlar): geografik (ob'ektning er yuzidagi joylashuvi, kosmosdan olingan fotosuratlar, aerofotosuratlar), geografik bilan bog'liq jadvalli yoki tavsiflovchi ma'lumotlar; texnik vositalar (kompyuter, kompyuter va telekommunikatsiya tarmoqlari, tashqi xotira disklari, skaner, raqamlashtirgichlar va boshqalar); geografik ma'lumotlarni saqlash, kiritish, tahlil qilish va tasavvur qilish uchun dasturiy ta'minot; texnologiyalar (usullar, protseduralar va boshqalar); dasturiy mahsulotlar bilan ishlaydigan mutaxassislar.

Hududiy qamrov bo'yicha:



global GIS;
subkontinentalGIS;
milliy GIS;
mintaqaviy GIS;
mintaqaviy GIS;
mahalliy yoki mahalliy GIS.

Funksional jihatdan:

to'liq ishlaydigan;
Ma'lumotlarni ko'rish uchun GIS;
Ma'lumotlarni kiritish va qayta ishlash uchun GIS;
ixtisoslashgan GIS.

1.2. Geoaxborotlarni olish va qayta ishlashning samarali qo'llash usullari.

GIS real xaritalar haqidagi ma'lumotlarni ushbu xaritalar bilan bog'liq tematik qatlam xaritalari va ma'lumotlar bazalari to'plami shaklida saqlaydi.



Ma'lumotlarni kiritish Geografik axborot tizimlarida raqamli xaritalarni yaratish jarayoni avtomatlashtirilgan bo'lib, bu texnologik tsikl vaqtini keskin qisqartiradi. **Ma'lumotlarni boshqarish** Geografik axborot tizimlari keyingi tahlil qilish va qayta ishlash uchun fazoviy va atribut ma'lumotlarini saqlaydi. **Ma'lumotlarni so'rov qilish va tahlil qilish** Geografik axborot tizimlari xaritada joylashgan ob'ektlarning xususiyatlari to'g'risida so'rovlarni amalga oshiradi va

ma'lumot olish yoki hodisalarni bashorat qilish uchun ko'plab parametrlarni taqqoslash orqali kompleks tahlil jarayonini avtomatlashtiradi. **Ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish** Qulay ma'lumotlarni taqdim etish ularni tahlil qilish sifati va tezligiga bevosita ta'sir qiladi. Interaktiv xaritalardagi fazoviy ma'lumotlar. Ob'ektlarning holati to'g'risidagi hisobotlarni grafikalar, diagrammalar, uch o'lchovli tasvirlar shaklida qurish mumkin

1.3. Geoaxborotlarni boshqarishning zamonaviy muammolari va yechimlari.

Sun'iy yo'ldosh navigatsiya tizimi bu yer, suv va havo ob'ektlarining joylashishini (geografik koordinatalarini va balandligini) aniqlash uchun mo'ljallangan tizim.

	GPS	ГЛОНАСС	Galileo	Compass/Beidou	IRNSS	QZSS
Страна	США	СССР/Россия	ЕС	Китай	Индия	Япония
Количество спутников (на орбите/планируется всего)	31	27/30	4/30	19/35	7	1/7
Логотип						

GPS- qabul qiluvchisi

GPS-guruhining sun'iy yo'ldoshlari chiqaradigan radio signallarning kelish vaqtining kechikishi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, qabul qiluvchi antenaning hozirgi joylashuvining geografik koordinatalarini aniqlash uchun radio qabul qilgich. Rossiyada GLONASS tizimining rivojlanishi bilan bir qator dizaynerlik byurolari va tashkilotlari tomonidan GLONASS qabul qiluvchilarini seriyali ishlab chiqarish boshlandi.



Kartaning mavjudligi qabul qiluvchining foydalanuvchi xususiyatlarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Xaritalar bilan qabul qiluvchilar nafaqat qabul qiluvchining o'zi, balki atrofdagi narsalarning ham holatini ko'rsatadi. Barcha elektron GPS xaritalarini ikkita asosiy turga bo'lish mumkin - vektorli va raster.

2-Mavzu Yer tuzish uchun qishloq xo'jaligi maqsadlariga mo'ljallangan yerlar va umuman mamlakat yer maydonlari to'g'risidagi raqamlashtirilgan yagona axborotlar tizimidan foydalanish yo'llari (2 soat)

Reja:

2.1. Zamonaviy yer tuzish uchun qishloq xo'jaligi maqsadlariga mo'ljallangan yer maydonlari to'g'risidagi ma'lumotlarni raqamlashtirish.

2.2.Mamlakat yer maydonlari to'g'risidagi raqamlashtirilgan yagona axborotlar tizimidan foydalanishning innovatsion yo'llari.


2.1. Zamonaviy yer tuzish uchun qishloq xo'jaligi maqsadlariga mo'ljallangan yer maydonlari to'g'risidagi ma'lumotlarni raqamlashtirish.

Yer tuzish uchun qishloq xo'jaligi maqsadlariga mo'ljallangan yerlar respublika yer fondining asosiy qismini tashkil etadi. Bu yerlar bo'yicha ma'lumotlar esa Yer axborot tizimida (YeAT) aniqlanadi.

YeAT faoliyatining asosi kadastr tasvirga olishlari (yerlarni inventarizatsiyalash) hisoblanadi. Ular hududning skletini (masalan, yer egaligi chegaralari shaklida) va har xil ma'lumotlar qatlamlarini (masalan, yer turlari tarkibi, joyning reliefi, gidrografiya va boshq. bo'yicha) yaratish imkonini beradi, bu esa yerlardan samarali foydalanish va ularni muhofaza qilish bo'yicha har xil qarorlarni qabul qilish imkoniyatini yaratadi. Bunda kadastr tasvirlarga olishlari (yerlarni inventarizatsiyalash), ma'lumotlar qatlamlari tarkibiga kiritiladigan barcha keyingi ma'lumotlarni to'g'ri bog'lashni ta'minlaydi.

Ma'lumotlar qatlami – bu maxsus ma'lumotlar to'plami bo'lib, ma'lum maqsadga mo'ljallangan va mos mazmunga egadir. Ular yordamida har xil maxsus vazifalarni yechish, mavzuli xaritalarni tuzish, har xil resurslardan foydalanish bilan bog'liq loyihalarni ishlash mumkin, foydalanuvchi manfaatlariga mos tarzda qatlamlar kompyuter ekraniga har xil ko'rinishlarda chiqarilishi, birlashtirilishi, plotterlarga chiqarilishi mumkin.

YeAT qatlamlari tarkibining chizma ko'rinishi 1– rasmda keltirilgan.



1-расм.ЕАТ маълумотлари
қатламлари

Asosan, bazaviy ma'lumotlar qatlamlari ro'yxatiga quyidagilar kiradi:

- 1.chegara tarmog'ining tayanch nuqtalari;
- 2.yer egaliklarining chegaralari;
- 3.yerdan foydalanish turlari bo'yicha rayonlash ma'lumotlari;
- 4.nuqtali / chiziqli ob'ektlar;
- 5.joyning reliefi;
- 6.geografik nomi/

Ma'lumotlar qatlami "Tayanch nuqtalari (rejaviy va balandlikli)" YeAT ning boshqa ma'lumot qatlamlari uchun hamda boshqa koordinatalarga ega ma'lumotlar uchun bazaviy hisoblanadi. Tayanch nuqtalari har qanday ob'ektlarni uzoq vaqtga, talab etilgan aniqlikda joylarga bog'lashni ta'minlaydi. Ushbu qatlam, o'lchashlarda yuqoriroq aniqlik beradigan yalpi texnik vositalar paydo bo'lganda, doimiy ravishda yangilanib borishi mumkin.

Chegaralar qatlami amalda joyning hududiy taqsimlanishini ko'rsatadi. Unda ma'muriy chegaralar, ko'chmas mulklar chegaralari va muddatli mustaqil foydalanish huquqlari chegaralar hamda chegara nuqtalari ko'rsatilgan.

"Yerlardan foydalanish maydonli ob'ektlar" qatlami hududning yerdan foydalanish planidan iborat bo'lib, unda yer turlari (haydalma yerlar, daraxtzorlar, yaylovlar va boshq.), imoratlar, suv manbaalari, o'rmonlarning joylashuvi ko'rsatiladi. Ushbu qatlam yerlarni turlari bo'yicha hisobga olish uchun asos bo'lib, yer tuzishda esa har xil mulkdorlar, yerdan foydalanuvchilar yerlarining yer turlari bo'yicha mavjud eksplikatsiyasini tuzish uchun xizmat qiladi.

"Nuqtali / chiziqli ob'ektlar" qatlami planda nuqta (quduqlar, buloqlar, yakka turgan daraxt va boshq.) va chiziq (ihota daraxtlari polosalari, yo'llar, ariqlar, zovurlar, ko'priklar, elektr liniyalari, quvur o'tkazgichlar va sh.o'.) shaklidagi ob'ektlarning joylashuvi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Yer turlari, nuqtali va chiziqli ob'ektlar ro'yxati, asosan yer tuzish, yer kadastrini yuritish bo'yicha me'yoriy – huquqiy hujjatlar va ko'rsatmalar asosida tuziladi.

"Joyning reliefi" qatlamida balandliklar, yozma ko'rsatilgan balandliklar, yozma ko'rsatilgan balandlik nuqtalari majmui, reliefning egilishlari va shakli ko'rsatiladi. Ushbu va oldingi uchta qatlamlar asosida yer tuzishni loyihalashda foydalaniladigan, gorizontallar tushirilgan joyning plani tuzilishi mumkin.

“Geografik nomlar” qatlamida aholi yashash joylarining, ayrim hududlarning, daryolarning, ko‘llarning, yer turlarining va sh.o‘. nomlari to‘g‘risida ma’lumotlar keltiriladi.

2.2.Mamlakat yer maydonlari to‘g‘risidagi raqamlashtirilgan yagona axborotlar tizimidan foydalanishning innovatsion yo‘llari.

Yerdan foydalanuvchilarni ro‘yxatga olish, yer tuzish va yer kadastrini o‘tkazish maqsadida, zarurat tug‘ilsa boshqa kenglikka bog‘langan ma’lumot qatlamlari ham yaratilishi mumkin. Masalan: yerdan foydalanuvchilar yerlarini iqtisodiy baholash, sanitariya-himoya, muhofaza mintaqalari chegaralari, injenerlik tarmoqlar, yo‘llar va boshq. bo‘yicha.

Qo‘shimcha qatlamlarni tizimda ma’lumotlar almashish juda sekinlashib qolishiga yo‘l qo‘yilmaydigan darajagacha kiritish mumkin.

Rivojlangan chet davlatlarda har xil yer tuzish va yer kadastri masalalarini yechish uchun YeAT keng tarqalgan. Masalan, ulardan yer uchastkalarini ro‘yxatdan o‘tkazishda, yer uchastkasi kartada ko‘rsatilganidan keyin u to‘g‘risida ma’lumot olish, yer uchastkasini yoki ob‘ektni uning tartib raqami yoki manzili bo‘yicha izlash, yuklarni tashishning optimal marshrutlarini aniqlash uchun va sh.o‘. foydalaniladi.

Yer va mulk kadastrlarini yuritishda YeAT rayonlashtirishda har xil mintaqalarni ajratish, yerlarni va ko‘chmas mulk ob‘ektlarini baholash, yer munosabatlarini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmini yaratish uchun foydalaniladi.

Yer monitoringida bu tizimlardan yer uchastkalarini pasportlashda, hududning ekologik holatini baholashda, ifloslovchi manbalarni aniqlash va hududni ifloslovchi ob‘ektlarning joylashuvini tahlil qilishda, yer usti va yer osti suvlarida va atmosferada ifloslovchilar tarqalishi jarayonlarini modellashda, yerdan foydalanishni va uni muhofaza qilishni nazorat etishda foydalaniladi.

Yer tuzishda YeAT yanayam katta ahamiyatga ega. Ular quyidagi yer tuzish masalalarini yechishda judayam kerakli bo‘ladi:

plan-xarita materiallarini yangilashda;

hududda yer tuzish izlanishlarini olib borishda;

yerlarni chegaralashda (yer uchastkalarining joylarda chegaralarini belgilash, tiklash va mahkamlash);

yer tuzishni loyihalashda (xo‘jaliklararo va xo‘jalikda ichki yer tuzishda, ishchi loyihalarda);

qishloq xo‘jaligi yerlarida yer tuzish maqsadlari uchun hududni aeroekologik, ekologik-landshaftli, ekologik-xo‘jalik va boshqa turdagi mintaqalashni o‘tkazishda; aholi yashash joylarida yer tuzish ishlarini o‘tkazishda, shaharlarning

yer xo‘jaligini tuzish loyihalarini ishlashda, shahar qurilishida mintaqalash va loyihalashda;

ma‘muriy – hududiy bo‘linmalar darajasida yerdan foydalanish va uni muhofaza qilishni rejalashda;

O‘z navbatida yer tuzish ishlarini o‘tkazish davrida yig‘ilgan ma‘lumotlardan YeAT ma‘lumotlarini to‘ldirish va yangilash uchun foydalaniladi. Masalan: yerlarni qayta taqsimlash uchun o‘tkazilgan xo‘jaliklararo yer tuzish loyihasi ishlangandan keyin yangi yer egaliklari va yerdan foydalanishlar paydo bo‘ladi. Ular va ularga biriktirilgan yer uchastkalari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar YeATlariga kiritiladi va keyinchalik yerdan foydalanish bilan bog‘liq har xil boshqarish masalalarini yechishda foydalaniladi. Ayrim hollarda yerga egalik qilish huquqi yer uchastkasi chegarasi o‘zgarmasdan ham boshqa shaxsga o‘tishi mumkin. Masalan: agar yer egasi o‘z yerini sotsa, sotib olgan shaxs oldi-sotdi hujjatlarini ro‘yxatdan o‘tkazgandan keyin yangi yer egasiga aylanadi. Shundan keyingina, u yangi yer egasi sifatida YeATga kiritilishi mumkin. Bu vaziyatda yer uchastkasining o‘rnini, chegaralarini va maydonini aniqlash bo‘yicha to‘la yer tuzish ishlari o‘tkazilmaydi. Shunga qaramasdan, yer egasining o‘zgarishi jarayoni yer tuzish ishlari hisoblanadi va yer tuzish hujjatlarini to‘ldirishni talab etadi, ular yerga bo‘lgan huquqning o‘zgarishi uchun asos bo‘lishadi.

YeATlarini yaratishda va ular ma‘lumotlaridan foydalanishda matematikaning har xil bo‘limlari qo‘llaniladi: geometriya; trigonometriya; matematik dasturlash, matematik tahlil va boshq.

YeATlarini yaratishda matematik xaritalash ma‘lumotlaridan; samolyot va kosmik uchish apparatlari yordamida o‘tkazilgan masofadan izlanishlar natijalaridan; fotogrammetriya, geodeziya va topografiya ishlari natijalaridan, dala kompyuter tizimlaridan, GPS vositalaridan keng foydalaniladi.

3-Mavzu: Yer tuzish loyihalarini raqamli ko‘rinishga o‘tkazish va shu asosda ular aniqligini tubdan oshirishning innovatsion yechimlari. (2 soat)

Reja:

3.1. Yer tuzish loyihalarini raqamli ko‘rinishga o‘tkazishning innovatsion usullarini qo‘llash.

3.2. Yer tuzish loyihalarini aniqligini oshirishning innovatsion yechimlari masalalari.

3.1. Yer tuzish loyihalarini raqamli ko‘rinishga o‘tkazishning innovatsion usullarini qo‘llash.

Qayta ishlash (interpreting) – **Yer tuzish loyixalarini raqamli ko‘rinishga o‘tkazish** oddiy (analog) ma’lumotlarni kompyuter tizimida saqlay oladigan raqamli ko‘rinishgakeltirish jarayoni. Raqamlashtirishda digitayzer (raqamlovchi), GATidagi dasturiy ta’minotlar, skanerlar va boshqa raqamlovchi qurilmalar qo‘llaniladi.

Kartografik axborotlarni tasvirlash qoidalari obektlarni uzoq yaqin joylashuviga qarab, masshtablarda ko‘rsatilishi va shartli belgilarga qarab belgilanadi. Bu qoida shartli belgilar tizimi va shu bilan birga raqamli topokartalarni yaratish metod va texnikalari asosida ishlab chiqilgan. Raqamli tasvirlashning eng ko‘p ishlatiladigani: obekt kodi, metrik tasvirlanishi, obektning topokartada ayni masshtabda joylashganligi harakteristkasi va ko‘pincha obektning semantikasidir. Obektning metrik tasvirlash ikki xil vazifani bajaradi: •

Obektning fazoviy o‘rnini joylashtirish • Qo‘shimcha axborot bilan ta’minlash; Harakteriga qarab obektlar quyidagicha tasvirlanadilar: • Diskret obekt-bir nuqtali;

- Shartli-chiziqli obekt-ikki nuqtali;
- Chiziqli va maydonli obekt-koordinatalariga qarab; maydonli obektda ohirgi nuqta o‘z o‘rnida birinchi ham bo‘lib keladi.
- Chiziqli obektlar ham berilgan yo‘nalishiga qarab ikki guruhga bo‘linadi:
- To‘g‘ri va har qanday yo‘nalishda (masalan yo‘l);
- Faqat balandlikni yoki relefni tasvirleydigan (masalan gorizontallar, suv oquv chiziqlari va b.).

Rastrlash - bu berilgan analog yoki qog‘oz ko‘rinishli tasvirdan raqamli ko‘rinishga keltirib

raqamli tasvir olish sifatida ham qaralishi mumkin. Undan tashqari vektor formatdan rastr formatga keltirish orqali ham rastrlash ishi amalga oshirilishi mumkin. Qog‘oz ko‘rinishdagi tasvirni rastrlash jarayonining eng keng tarqalgan

usuli bu skanerlash jarayonidir. Oldingi bobda ta'kidlanganidek foydalanuvchi ishlatish maqsadiga ko'ra oddiy skanerlardan yoki maxsus skanerlardan foydalanishi mumkin.

Rastrlash jarayoni. Rastrlash jarayoni juda kerakli jarayondir. Bizga ma'lumki barcha aerokosmik sur'atlar bizga rastr ko'riinishda keladi, lekin geofazoviy ma'lumotlar bazasini tasvirlashimiz va yaratishimiz uchun bizga vektor ma'lumotlar kerak bo'ladi. Odatda ulkan miqyosdagi geofazoviy ma'lumotlar aerokosmik tasvirlar orqali keladi va ular oldingi kurslarimizdan ma'lumki rastr ko'riinishda bo'ladi. Rastr lash yoki tayyor rastr ma'lumotlarni o'z navbatida vektor formatga keltirish zaruriyati paydo bo'ladi. Lekin vektor formatdan oldin rastr formatdagi tasvirlarga ishlov berish kerak. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak GAT tilida Raqamli tasvirni qayta ishlash jarayoni (digital image processing) bizga kerak bo'ladi. Bu jarayon orqali tas-vir aniqligi oshiriladi va keraksiz hatoliklar bartaraf etiladi.

Yordamchi manbaalar yordamida vektor ma'lumot olish ishiga karta va boshqa geografik ma'lumotlar manbaalaridan vektor obektlarni raqamlashtirish kiradi. Eng ko'p qo'llaniladigan usullardan qo'l yordamida raqamlashtirish, ustidan chizib raqamlashtirish va vektorizatsiyalash kiradi.





Raqamlovchi qurilmalar turli xil ko'rinishda, kattalikda va shaklda bo'ladi. Ularning ishlash tamoyili qurilmada joylashgan shayba yoki doira ko'rinishdagi oynali kursor ichiga o'rnatilgan chiziq yoki simlarning kesishuvidan xosil bo'lgan markaziy nuqtani planshet ustida turgan kartadagi chegara va chiziqlarni ustidan yurgizib chiqishga asoslangan. Raqamlovchi qurilmaning planshet yoki doskasini

aniqligi 0,01 mm dan 0,25 mm gachadir. Kichik raqamlovchi plashetlar 30x60 sm bo‘lib kichik masalalarni hal qilishga, kattaroqlari 112x152 sm lilar kattaroq vazifalarni bajarishga mo‘ljallangan. Ikkala qurilmada ham kursorning oynasi ichiga o‘rnatilgan ikki kesishadigan simlar yoki chiziqlar va raqamlash jarayonida boshqarish tugmalari mavjud.

3.2. Yer tuzish loyihalarini aniqligini oshirishning innovatsion yechimlari masalalari

